

TA'LIM TIZIMIDA AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING KASBIY KOMPETENSIYALARI

Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li

Toshkent Amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi

Tel: +998975859547 E-mail: yoldoshevjavlon37@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixolog shaxsi va unga qo'yilgan talablar hamda egallashi lozim bo'lgan xususiyatlari va muataxassis sifatida jamiyat hayotidagi o'rni muhokama qilingan. Psixologning kasbiy kompetensiyalari, ta'lim tizimida psixologning roli, psixologlarning axloqiy va kasbiy tamoyillari yoritib berilgan.

Абстрактный. В данной статье рассматривается личность психолога, требования, предъявляемые к нему, характеристики, которые он должен приобрести, его роль как специалиста в жизни общества. Объясняются профессиональные компетенции психолога, роль психолога в системе образования, этические и профессиональные принципы психологов.

Abstract. This article discusses the personality of a psychologist and the requirements placed on him and the characteristics he should acquire and his role as a specialist in the life of society. Professional competencies of a psychologist, the role of a psychologist in the educational system, ethical and professional principles of psychologists are explained.

Kalit so'zlar: amaliyotchi psixolog, kasbiy etika, kasbiy kompetensiya, ta'lim tizimida psixolog, psixologik xizmat, professionallik.

Ключевые слова: практикующий психолог, профессиональная этика, профессиональная компетентность, психолог в системе образования, психологическая служба, профессионализм.

Key words: practicing psychologist, professional ethics, professional competence, psychologist in the educational system, psychological service, professionalism.

Psixologiya XX asr bo'sag'asida fan sifatida shakillana boshlaganida oldiga buyuk maqsadlarni qo'yib insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'ldilar. Shaxs va uning faoliyatini har tomonlama rivojlantirish muammosiga psixologiyaning amaliy tatbiqiy yo'nalishlari asosida yondashish zarurligi haqida ko'pgina olimlar o'z fikrmulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmoqdalar. Psixologik xizmatning asosiy mazmuni – sog'lom shaxsning o'sishini ta'minlash shaxs rivojlanishidagi turli qiyinchiliklarni korreksiya qilish va kasb tanlash muammosidir. Birinchi bo'lib 1975 yilda Estoniyada psixologik xizmat atshkil etildi. Uning rahbari X.I.Liyets, Yu.L.Serd bo'lib tarbiyasi qiyin

o'smirlar uchun ish olib bordilar. Rossiyada I.V.Dubrovina psixologik xizmatning rivojlanishiga juda katta hissa qo'shgan. Har bir davlatning ijtimoiy taraqqiyoti o'sha davlat hududida yashovchi fuqarolarning ijodiy o'sishi va axloqiy potensialiga bog'liq bo'ladi. Jumladan, bu kasb AQShda o'tgan XX asrning 1960 yillarida paydo bo'lib hozirgi zamon psixologiyasidagi asosiy tarmoq hisoblanadi. AQShda 1980 yillarda maktab psixologlarining Milliy assotsiyasi tuzilgan edi. AQShda maktab psixologining markaziy vazifalarida biri o'quvchilarning aqliy rivojlanish sifatini test savollari orqali baholash hisoblanadi. Psixolog B.L.Vulfson Fransiyaning hozirgi vaqtdagi pedagogik muammolarini taxlil qilib yaqin vaqtlargacha test uslubi AQSH va Agiliyadagidek keng tarqalmagan degan fikrni aytadi. Fransiya maktablarida bolaning aqliy faoliyatlari va qobiliyatlarini testlar orqali aniqlash o'tgan asrning 70-yillari boshidan boshlaganligi ma'lum. Lekin hozirgi vaqtda odamning faqatgina aqliy faoliyati bilan emas balki shaxs bo'lib shakllanishi jarayonida uni har tamonlama baholashga to'g'ri keladi.

Zamonaviy ta'lim o'z-o'zidan kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuv masalasini asosiy mavzu bahsi qilib qo'yimoqda. Bu albatta, kasb jihatdan kompetentligi bo'lgan bo'lajak o'qituvchini tayyorlashni talab qiladi. Ta'limning asosiy maqsadi o'quvchida ijtimoiy zarur sifatlarni va kompetensiyani, shaxs sifatida o'z-o'zini anglash, o'z bilimlarini doimiy oshirib borish, o'z-o'zini boshqarib borish va faollashib borishi zarur, chunki pedagog o'z ixtisosligi bo'yicha tali'm va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas'uldir. U muntazam ravishda o'z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o'qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo'lishi, aniqrog'i, kasbiy kompetensiya egasi bo'lishi lozim. Endilikda o'qituvchi uchun o'zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta'lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o'z faoliyatida qo'llay olishi, bir so'z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo'lishi lozim. "Kompetensiya" tushunchasini izohlar ekanmiz, bu atamaning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratamiz. Kompetensiya lotincha so'z bo'lib, o'zbek tilida "munosib", "to'g'ri keladi" yoki "mos keladi" ma'nolarini anglatadi. O'z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo'llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib inson deb tushunsa bo'ladi. Ko'p hollarda "kasbiy kompetentlik" atamasi qo'llaniladi. Bu so'zni kasbiy vazifalarini amalga oshirishda o'z amaliy tajribalari, bilim va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyati deb tushunsa bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuv, mazkur jamoa yoki shaxs ana shunday kompetensiya egasi, nihoyat, pedagogik kasbiy kompetensiya egasi deb qo'llash maqsadga muvofiq. Shunday qilib, har qanday holatda ham,

kompetensiya ma'lum bir shaxs yoki jamoaning jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi. Uni ham qonuniy, ham axloqiy munosabatlari bilan mustahkamlaydi.

Jamiyatdagi biron-bir guruh, jamoa yoki shaxs ma'lum bir soha bo'yicha yuksak malaka va bilimlarga ega bo'lib o'z sohasida kompetensiya egasi bo'lib shakllanadi hamda ushbu vakolatini muntazam ravishda takomillashtirib boradi. Bu masalaga jamiyatning manfaatlari yuzasidan yondoshiladi. Shaxs esa o'z kompetensiyasini takomillashtirib borish orqali, eng avvalo, o'zining hayotiy manfaatlarini amalga oshiradi, shu bilan birga jamiyatning shaxsga qo'yayotgan talablari darajasiga erishadi. Dunyo olimlari tavsiya qilayotgan "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini biz yuqorida birlashtirish taklifini kiritdik. Kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv haqidagi ilmiy ishlarni tahlil qilar ekanmiz, bu ikki tushuncha haqida turli tuman fikrlar aytilayotganligini yaqqol sezamiz. A.G.Bermusning fikriga ko'ra, "Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha hislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig'ini yagona tizimga birlashtiradi". "Kompetentlik bu nafaqat shaxsning bilimdon ekanligi, balki o'z bilimlarini uzluksiz ravishda yangilab borishi hamdir, – deydi M.A.Choshanov. M.Aronovning fikricha, kompetentlik mutaxassis ning ma'lum bir faoliyat uchun tayyor ekanligini bildiradi.

Amaliyotchi psixologning faoliyati uning huquqlari va burchlari majmuasi bilan boshqarilib turilishi lozim. U quyidagilardan iborat:

- Psixolog o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hukumatining xalq ta'limi sohasi bo'yicha qabul qilgan hujjatlariga amal qilgan holda bajarishi shart. Psixolog oliy o'quv yurtining psixologiya sohasini (qisqa kursni) bitirganligini tasdiqlovchi maxsus hujjatga ega bo'lishi lozim.

- Psixologiya fanining eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lishi, bolalar psixologiyasi, pedagogik psixologiya, amaliy psixologiyani chuqur bilishi zarur. Diagnostik, psixoprofilaktik, rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlarning hozirgi zamon ilmiy yutuqlariga asoslangan metodlar bilan qurollanishi, xalq ta'limi tizimida doimo o'z malakasini oshirib borishi kerak.

- Muammolar muhokamasida va ular yuzasidan qaror qabul qilishda kasbiy vakolat chegarasidan aslo chetga chiqmaslik ma'qul.

- Shu sohaning mas'ul mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarga rioya qilgan holda barcha ko'rsatmalar va tavsiyalarni qat'iy bajarishi shart.

- Barcha psixologik masalalarni hal qilishda o'quvchi va talaba manfaati, ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqishi zarur.

- Diagnostik va korreksion faoliyat natijalarini sir saqlash, olingan ma'lumotlar sinaluvchilar shaxsiyatiga zarar keltirmasligi, ularni qurshab turgan muhit a'zolari tahlikaga tushmasligi kerak. Psixolog pozitsiyasining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

a) pedagog bilan bo'lgan munosabatga ustanovka;

b) pedagoglarni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishga ustanovka.

v) sub'ekt - sub'ekt munosabatlaridan iborat tenglik va hamkorlik xarakteridagi munosabatlarga ustanovka. Mana shunday pozitsiya pedagoglar bilan bo'lgan konstruktiv hamkorlikni ta'minlay oladi. Dastlabki kezlarda psixolog o'qituvchilarga o'z yordamini haddan tashqari faollik bilan tiqishtirmasligi zarur. Kamtarona ravishda, agar zarur bo'lsa, yordam berishga tayyorligini ma'lum qilsa, shuning o'zi kifoya. O'qituvchilar bilan ishlashda bolada ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarga asosan o'qituvchi sababchi bo'layotganini ta'kidlab turishi kerak. Psixologning ishi "soya" da qolishi kerak emas. Shunda u jamoa orasida tan olinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akramova F.A., Lutfullaeva N.X, Xaydarova X.P. «Pedagogik psixologiya» fani (ma'ruzalar matni). - T.: TDIU, 2005 - 201 bet.
1. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik.Uslubiy qo'llanma. -T.: BROK SLASS SERVIS, 2016. – 84b.
2. Umarova M.X., Axmadaliev A.U., To'raev A.B., Imomov M.P. Pedagogikaning taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalari // O'quv – uslubiy majmua. Toshkent – 2016.
3. Shamshetova A. K. Umumiy psixologiya // o'quv –uslubiy majmua. O'zDJTU – 2018. 320 bet.
4. Ibraimov, X., Azimova, Z., & Otaboeva, Z. (2023). Pedagogical peculiarities of studying group solidarity in the student community. *Science and innovation*, 2(B12), 108-113.
5. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
6. Sadiddinov S.R. Turayeva D.R. Psixokonsultatsiya va psixokorreksiya (o'quv qo'llanma). O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 25 noyabrdagi 388-sonli buyurug'iga asosan.
7. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании. www.eidoc.ru. 2005, 09, 10.